

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARNI METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Abduqodirov Elbek Abduvali o‘gli

*Namangan davlat universiteti Amaliy matematika va
raqamli texnologiyalari kafedrasida stajyor – o‘qituvchisi*

elbek_abduqodirov@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini mazmun mohiyatini anglab yetish, qolaversa o‘qituvchi tomonida yangi metod va loyihalar ishlab chiqishga qaratilgan. Ya’ni metodik tayyorgarlik nima?, pedagogik mexanizm aslida nima ekani haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Informatika, informatika o‘qituvchilari, metod, metodika, pedagogika, pedagogik mexanizm, loyiha.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi 289-sonli qarorida Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilmfan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsad¹ qilib qo‘yilgan.

Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish, kasbiy faoliyatida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash, informatikadan turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish hamda o‘tkazishga tayyorlash, ta’lim-tarbiya sohasini axborotlashtirishning yo‘llari va istiqbollari haqidagi tassavvurlarini rivojlashtirish va chuqurlashtirish, informatika o‘qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar, amalda qo‘llash uchun ko‘nikma va makalalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

O‘qituvchining mustaqil o‘qib –o‘rganishi (informatika fanida ro‘y berayotgan eng so‘nggi yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish), tajribali ustoz o‘qituvchilar faoliyatini o‘rganish (ta’lim muassasasidan chetga chiqmagan holda), O‘qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko‘nikmalarni oshirib borishi, Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar pedagogik o‘qish hamda treninglar)da faol

¹ <https://lex.uz/docs/-6079561>

ishtirok etish, Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish. ularda ilgari surilayotgan fikrlarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash.[2,3] metodik tayyorgarligini rivojlantirish, metodik bilimlarni mustahkamlash hamda yangi metod ishlab chiqishga qaratilgandir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib pedagogik mexanizmlarni shakllantirishimiz mumkin bo'ladi, chunki metodik bilimlarni darsda tartib bo'yicha qo'llay olsak biz maqsadimiz (pedagogik mexanizm)ga erishgan bo'lamiz.

Ushbu maqsadga erishish uchun talabalarda bo'lajak informatika o'qituvchisi sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda o'qitiladigan Informatika va axborot texnologiyalari fanining ahamiyati, uning mazmuni, tamoyillari, shuningdek, fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligiga oid nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Informatika o'qitish metodikasi bo'yicha o'qituvchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

–informatika va axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida tutgan o'rni va roli, informatika o'qitish metodikasining pedagogika, psixologiya fanlari bilan bog'liqligi, informatika o'qitish metodikasi tarixi, informatika o'qitishning zamonaviy usul va vositalari, informatikaga oid internet, masofaviy ta'lim va Web-texnologiyalarga asoslangan tarmoq ta'lim resurslari, darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarning xususiyatlari to'g'risida bilimga ega bo'lishi;

–informatika o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan integratsiyasi, informatikani o'qitishning zamonaviy shakl, usul, vositalari, ularning nazariy asoslari, umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida informatikani o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, informatikani o'qitishning didaktik tamoyillari, informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda uning qismlari va boblariga xos xususiyatlari, informatikadan darsdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, internet, masofaviy ta'lim va Web-texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari shakllangan bo'lishi;

- informatika o'qitishda zamonaviy usul va vositalarini qo'llay olish, informatika o'qitishda ilg'or metodik tajribalarni umumlashtira olish, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha mustaqil ta'lim olishga o'quvchilarni yo'llash, informatikani o'qitishda o'quvchilarda axboriy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish, informatikadan o'quvchilar bilimini baholay olish, informatika darslari hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha talab qilingan barcha hujjatlarni yuritish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 'Ta'lim to'g'risida'gi qonuni. //Barka 10 avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T. Sharq, 1997, 20-29 betlar.

2. Abdullayev H. Yashil daftar hikmati. -Toshkent, O'qituvchi, 2000.
3. Barkamol avlod orzusi. - T.. "O'zbekiston Milliy Eensiklofediyasi", 2000
4. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq 1997. - 63 b.
5. "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentiniig Qarori. "Adolat" gazetasi, 2010 yil, 29-yanvar.
6. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -Iqtisod-moliya. 2009. - 240 b.
7. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. //Saylanma. -O'qituvchi, 1997. - 118 b.
8. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. - T.: Nizomiv nomli TDP 2005.- 149
9. Tarbiyaviy ish metodikasi. //Pedagogika institutlari uchun o'quv qo'llanma (L. I. Ruvinskiy tahriri ostida). - T.: O'qituvchi, 1991. - 376 b.
10. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q, "Muloqot" jumali, 1998 yil, 5- son.
11. Tolipov O \. Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya amaliyot.- T.: Fan, 2005.- 206 b.
12. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Pedagogik jarayonlami tashkil etish va boshqarish. - T.: Fan. 2009. - 168 b.
13. Elbek Abduvali Ogli Abdukodirov ALGORITHM OF GRINDING SOUND SIGNALS // Academic research in educational sciences. 2021. №8. URL: